



JAHON TILSHUNOSLIGIDA ONOMASTIK BIRLIKLAR TADQIQI

A. Obidova

Doktorant

Farg'ona davlat universiteti

Abstract: Inson tafakkuri olamdagi barcha narsani idrok etadi, uni ko'rish va farqlash orqali ular maTum bir guruhlariga bo'linib, mayda, yirik guruhlar tashkil boTadi. Bu orqali ular ma'lum turlarga birikib ketadi. Tilshunoslikda otlardan ham turdosh otlaming turlari ko'p hisoblanadi.

Kalit so'zlar: onomastik maydon, A.V. Superanskaya, terminlar.

Tildagi atoqli otlaming mavjud tiplari va hajmini aniqlay olish o'sha tildagi atoqli otlar doirasini, ular tarqalgan onomastik maydonni bilib olishga yordam beradi. Ushbu muammo onomastikaga oid tadqiqotlarda "onomastik ko'lam" ("onomasticheskoe prostranstvo") deyilgan tushuncha va termin bilan bog'langan holda talqin qilinmoqda. "Toponimik ko'lam" termini dastlab V.N.Toporov⁷⁷ tomonidan qo'llangan bo'lib, keyinchalik A.V.Superanskaya o'z tadqiqotlarida V.N.Toporovga taqlidan "onomastik ko'lam" "toponimik ko'lam" terminlaridan foydalandi⁷⁸

"Prostranstvo" so'zi ko'p ma'noli bo'lib, u: 1) falsafada fazo, makon, bo'shliq; 2) oddiy ma'noda: keng sath, maydon, joy, bo'shliq; 3) yer sathidagi katta kenglikni ifodalaydi⁷⁹.

Bu tushuncha maydon sath tushunchasida qabul qilsak juda ham tor ma'no bo'lib, uning to'liq mazmunini ifodalay olmaydi, aksincha ko'lam ma'nosida olinsa so'zning ma'nosi kengaya boshlaydi. Shu bilan bir qatorda onomastik ko'lam ham keng va tor ma'noda bo'lishi mumkin.

Onomastik birliklar tadqiqi xususida dastlab o'zbek tilida olib borilgan tadqiqotlar, izlanishlar bilan tanishib chiqsak.

O'zbek tili onomastikasi ham o'zining ko'lamiga ega. Buni Ernest Begmatov quyidagicha ta'riflagan: - "Super ko'lam (eng yirik ko'lam): o'zbek tilining barcha atoqli otlar majmuyi; -Makro ko'lam (yirik ko'lam): antroponimiya, toponimiya zoonomiya va boshqalar; -Mikroko'lam (kichik ko'lam): oykonimiya, agronimiya va boshqalar".

O'zbek tili onomastik ko'laming keltirilgan tasnifi ma'lum darajada

⁷⁷ Топоров В.Н. Из области теоретической топонимистики//Вопроси языкознание 1969.С21

⁷⁸ Суперанская А.В Общая теории имена собственного С-141

⁷⁹ Ruscha-o'zbekcha lug'at. Ikki jildli. II jild. Toshkent, 1984. -B.264.



shartlidir. Chunki onomastik tizimni tashkil qiluvchi turli tip atoqli otlaming o‘zaro aloqalari va uni ifoda etuvchi belgilar ko‘p qirrali hamda murakkab. Masalan, “konkret onomastik birliklaming har biri (masalan, antroponim - Azimbek, Gulbahor, kosmonim – Cho‘lpon, Zuhal va boshqalar) superko‘lam bilan uni tashkil qiluvchi atoqli tipi birligi sifatida bevosita bog‘lanadi va unga kiradi. Shuningdek, bu birliklar superko‘lam bilan o‘zi mansub bo‘lgan makro va mikroko‘lamlar orqali ham bog‘lanadi, chunki bu ko‘lamlar mohiyatan superko‘lamga mansubdir”⁸⁰.

O‘zbek tilining mikroko‘lami esa -toponimiya, antropomiya, zoonomiya kiradi: Quyida mikroko‘lamlar tizimiga onomastik birliklarning qisqacha izohini keltiramiz:

I. Antroponimiyaga kiruvchi mikroko‘lam tarkibi⁸¹:

Ismlar, laqab, familiya, otaism, patronim, matronim, elonim, genonim.

II. Zoonimiyaga kiruvchi mikroko‘lam tarkibi: giponim, omitonim

III. Poreyonimga kiruvchi mikroko‘lamning tarkibi: nautonim

IV. Kosmonimiyaga kiruvchi mikroko‘lamning tarkibi: venusonim, marsionim, merkuronim, selenonim.

V. Toponimiyaga kiruvchi mikroko‘lam tarkibi: oykonim, komonim, urbanonim, agroonim, nekronim, terronim, regionim, dromonim, xoronim, drimonim, insulonim.

VI. Gidronimga kiruvchi mikro ko‘lam tarkibi: bationim, gelonim, gimnonim, litionim, okeononim, potamonim, spleonim.

VII. Ideonimga kiruvchi mikroko‘lam tarkibi: ktematonim, dokumentonim, xrononim, gemeronim, biblionim, artionim.

VIII. Mifonimiyaga kiruvchi mikroko‘lam tarkibi: demononim, tautonim, mifontroponim, mifotoppnim, mifozoonim - mifik, mifofitpnim, mifonekronim, mifooronim, mifokosmonim⁸².

Antroponimlaming turlari:

Ba‘zi manbalarda antroponimlar 8 turga bo‘linadi:

- 1) shaxs nomi;
- 2) otasining ismi;
- 3) familiyasi;
- 4) mononim

⁸⁰ Begmatov E.A. O‘zbek tili antroponimikasi. - Toshkent: Fan, 2013. -B.34

⁸¹ Суперанская А.В. Общая теория имени собственного С-180

⁸² Avloqulov Y.I. O‘zbek tili onomastik birliklarining lingvistik tadqiqi: Filol. fan. nom.... dis. Avtoreferat. Toshkent, 2012



5) taxallus;

6) kriptoonim;

7) adabiy asarlarning antroponimlari (adabiy antroponimika), folklordagi qahramonlar (miflarda, ertaklarda);

8) antroponimlar - etnonimlarning hosilalari (xalq, elat, millat nomlari)

“Har bir kishining o‘z nomi-ismi bor. Bir xil ismli kishilari ya’ni adashlar ko‘p bo‘lgan holda, ulami laqab bilan farq qilganlar. Familiyalar ham aslida kishilarni bir-biridan farq qilishga xizmat qiladi. Umuman, inson narsalarga nom qo‘ymasdan yashay olmaydi dunyodagi hamma narsaning nomi bor. O‘simlik va hayvonlarning mahalliy nomlaridan tashqari ilmiy, lotincha nomlari ham mavjud. Har qanday o‘simlik va hayvonni lotincha nomiga qarab turli millat mutaxassislari darrov bilib oladilar. Demak, nomlar bir narsani ikkinchi narsadan farq qilishga yordam beradi”⁸³.

Onomastik birlik tushunchasini tahlil qilar ekanmiz, antroponimiyasining birliklari deb ism, laqab, taxallus, familiya va otaism (otchestvo)larni, shuningdek tarixda rasm bo‘lgan, keyinchalik qo‘llanishdan chiqqan ba’zi arabcha usullar (kun’ya, kun’yot)larni keltirish mumkin.

“Shaxsni nomlashning asosiy vositasi ismdir, boshqa usullar esa antroponimik nominatsiyada uni to‘ldiruvchi qo‘shimcha vazifalarni o‘taydi”⁸⁴

“Chaqaloqqa nom qo‘yish, munosib ism tanlash qadimgi davrlardan ota-ona, qarindosh-urug‘larning erkin huquqi bo‘lgan. Har bir xalq, ism tanlashda o‘z ona tilining so‘z boyligi, imkoniyatlariga tayangan. Ism tilda mavjud bo‘lgan so‘zlardan yasaladi. Lekin hech bir tilning lug‘aviy boyligi faqat o‘zining iborat bo‘lib qolmaydi”⁸⁵.

Familiya - o‘zbek onomastikasi tarixida ma’lum bir tarixga ega bo‘lib, shaxsning oila a’zolari, ota-onasi, oilasi, kimning qarindoshi ekanligiga ko‘ra atash odati bo‘lgan. O‘zbek onomastikasida ism oldiga o‘g‘li yoki qizi nomini qo‘yib aytilgan. Yuqori tabaqa vakillari ismi oldiga arabcha Aba, Abu nomlarini qo‘yib aytish orqali nomlar hosil qilingan. Familiyaning mohiyatiga, funksional xususiyatiga berilgan ancha ta’riflar mavjud. Taniqli rus lug‘atshunosi V.L.Dal familiyani “Kishining oilaviy merosiy nomi bo‘lib, shaxs ismiga qo‘shilib keluvchi hamda ota yoki onadan bolalarga o‘tadigan nom”⁸⁶,

⁸³ 3 Qorayev S. Toponimika o‘quv qo‘l /-O‘zbekiston faylasufbri milliy jamiyati nashriyoti, 2006. -B.5.

⁸⁴ Begmatov E.A. O‘zbek tili antroponimikasi. - Toshkent: Fan, 2013. -B.49.

⁸⁵ Begmatov E.A. O‘zbek ismlari ma’nosi:(Izohli lug‘at)-T “O‘zbekiston millim ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. -B.608

⁸⁶ Дал Владимир Толковый словарь живого великого русского языка М 1955.Т В-С.532



deb ta'riflaganю N.V.Podolskaya yozishicha, "familiya shaxsning biror oilaga mansubligini bildiradigan atoqli otdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Топоров В.Н. Из области теоретической топонимистики//Вопроси языкознание 1969.С21
2. Суперанская А.В Общая теории имена собственного С-141
3. Ruscha-o'zbekcha lug'at. Ikki jildli. II jild. Toshkent, 1984. -B.264.
4. Begmatov E.A. O'zbek tili antroponimikasi. - Toshkent: Fan, 2013. -B.33
5. Avloqulov Y.I. O'zbek tili onomastik birliklarining lingvistik tadqiqi: Filol. fan. nom.... dis. Avtoreferat. Toshkent, 2012
6. Qorayev S. Toponimika o'quv qo'l /-O'zbekiston faylasufbri milliy jamiyati nashriyoti, 2006. -B.5.
7. Begmatov E.A. O'zbek ismlari ma'nosi:(Izohli lug'at)-T "O'zbekiston millim ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. -B.608
8. Дал Владимир Толковый словарь живого великого русского языка М 1955.Т В-С.532